
"QO'QON" ERKIN IQTISODIY ZONASI QUVASOY FILIALIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR BILAN TANISHILDI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Quvasoy shahar Pakana MFY hududidagi "Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasi Quvasoy filialida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Prezidentimizning qarori asosida Quvasoy shahri hokimligi zaxirasidagi jami 210,4 gektar yer uchastkalari hisobiga "Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasi hududi kengaytirildi. Ikki yil davomida mazkur hududda kamida 1 mlrd. dollar miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilishi, 11,7 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi, yiliga 965 mln. dollar miqdorida qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, shundan 313,6 mln. dollarini eksportga yo'naltirish bo'yicha quvvatlar ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Ayni kunlarda bu yerda amaliy ishlarga kirishilgan bo'lib, 4 ta 61 mln. dollarlik istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda.

"Marwin fruitline" MChJ tomonidan mevani qayta ishlash va quyultirilgan tabiiy sharbat ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyiha qiymati 176,5 mlrd. so'm bo'lib, 120 ta yangi ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan. Yillik 5 mln. dollar eksport amalga oshiriladi.

Hozirda Shveytsariya, Italiya, Polsha, Xitoy va Turkiyaning zamonaviy texnologiyalari o'rnatilyapti. Korxonada yakuniy montaj ishlari olib borilmoqda.

Viloyat rahbari tegishli soha rahbarlari ishtirokida bu yerdagi muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish ishlarini muhokama qildi. Qisqa vaqt ichida oqova suv, tabiiy gaz va elektr energiya tarmog'ini tortish bo'yicha topshiriqlar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-10-08 14:57:26